



Zarnigor BOYMURODOVA,
"Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti
E-mail: boymurodova@mail.ru

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori B.Norbekova taqrizi asosida

THE ROLE OF UNIVERSAL VALUES IN RAISING CHILDREN IN THE FAMILY

The article describes the ways of developing the spiritual worldview of young people in the family, the importance of the harmonious use of spiritual heritage and national values, the use of advanced foreign experience in this area, pedagogical factors in the formation of the spiritual worldview of students and its implementation.

Key words: Values, conscience, duty, ethical culture, ethical standards, management.

РОЛЬ ОБЩЕЧЕЛОВЕЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ В ВОСПИТАНИИ ДЕТЕЙ В СЕМЬЕ

В статье раскрываются пути развития духовного мировоззрения молодёжи в семье. значение использования взаимной совместимости духовного наследия и национальных ценностей, использование зарубежного передового опыта в данной сфере, педагогических факторов развивающих духовное мировоззрение студентов, а также аспекты их реализации в образовательном процессе

Ключевые слова: Ценность, совесть, долг, духовная культура, этические нормы, управление.

OILADA BOLALARNI TARBIYALASHDA UMUMINSONIY QADRIYATLARNING O'RNI

Annotatsiya

Ushbu maqolada muallif tomonidan oilada yoshlarni ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirish yo'llari, ma'naviy meros va milliy qadriyatlardan o'zaro uyg'unlikda foydalanishning ahamiyati bu sohada ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish, talabalarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirishning pedagogik omillari hamda ta'lim jarayonida uni amalga oshirishning o'ziga xos jihatlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Qadriyat, vijdon, burch, axloqiy madaniyat, axloqiy me'yorlar, boshqaruv.

Kirish. O'zbekiston xalqining insonparvarlik va mehr oqibatga yo'g'rilgan shunday

qadriyatlari borki, bu qadriyatlar bugun millat doirasidan chiqib, umuminsoniy qadriyat darajasiga ko'tarilib borayotganiga dunyo guvoh bo'lmoqda. Ayni vaqtda informatsion tahdidlarni bartaraf etishda xalqimizga xos bo'lgan umuminsoniy qadriyatlarni o'quvchi yoshlar tomonidan o'zlashtirilishi, bu qadriyatlarga amal qilinishining ta'sir kuchi yuqori bo'ladi.

Asosiy qism. Sharq xalqlari uchun esa ahil, murosada yashash bosh qadriyatdir. Inson sha'ni, obro'-e'tibori, nafsoniyati, oniyati, vijdoni ushbu tarixiy madaniy g'oyalar asosiga qurilgan. Ma'naviy talablar esa o'z-o'zidan qadriyatlar qatorini to'ldirishni, mantiqiy ravishda birining ketidan ikkinchisini qo'yishni taqozo etadi. Ota-onaga ehtirom, aka-ukaning o'zaro hurmati, qavmu-qarindoshlar totuvligi, qo'ni-qo'shnilar ahilligi axloqiy qadriyat sifatida muayyan ketma ketlikda, qadrlanish darajasiga ko'ra, muayyan shaklda o'rin olgan.

Jamiyatimizda yaxshilikka intilib, yomonlikdan tiyilish qadriyat darajasiga ko'tarilgan. O'quvchilarga yaxshilikning asosini tashkil etuvchi "mehr oqibat", "mehr shafqat", "qadr qimmat tushunchalarini singdirish orqali o'zgaga yaxshilik qilish, oqibatli, shafqatli bo'lish, har bir narsaning qadr-qimmatiga yetish kabilari shakllantirilishi lozim. Shuningdek, yaxshilik yoki yomonlikni farqlash tuyg'usining shakllanishi jamiyatda mo'tadil ma'naviy hamkorlik ruhiyatini tarkib toptirishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Xalqimizning ma'naviy merosida vijdonli bo'lish qadriyat darajasiga ko'tarilganini ko'ramiz. Xusayn Voiz Koshifiyning "Ahloqiy Muxsiniy asarida vijdon, diyonat, nomus lymonning inson axloqining posboni yaxshilik va yomonlikni ajratuvchi mezon sifatida ta'riflaydi. Jumladan, Koshifiy yozadi: "Vijdoni,

nomusi, diyonati bo'lmagan kishi dunyoda bo'lgan hamma yomonlikni qilishga tayyordir. Yomonlik qilmagan, ya'ni yaxshi odam vijdonlidir" Shunday ekan, bolalar ongiga vijdon, diyonat kabi tushunchalarni buyuk allomalarimizning fikr g'oyalaridan o'quv mashg'ulotlar mazmuniga mos tarzda foydalanish orqali singdirish lozim. Vijdonli, diyonatli, insofli, nomusli inson hech qachon xalqiga, oilasiga, millatiga xiyonat qilmaydi.

Sharq mutafakkirlari ilmiy merosini o'rganganimizda adolat, burch, or-nomusli bo'lish kabi tushunchalarni qadriyat sifatida ko'ramiz. Adolatning qudrati o'zganing manfaatini ro'yobga chiqarish, singari zulmatni yoritish, johillikka barham berish va daryo misoli yerni yashnatish, har bir ishga adolat ko'zi bilan qarash bir so'z bilan aytganda, haqni qaror toptirishdir.

Burch shaxs faoliyatini ifodalovchi mas'uliyat, onglilik, vijdon kabi fazilatlar bilan chambarchas bog'liqdir. O'quvchi yoshlarning asosiy burchi o'z vatanga sodiq farzand bo'lib voyaga yetishi, kelajakda yetuk shaxs bo'lib el-yurt ravnaqiga hissa qo'shishi kabilari hisoblanadi. Burch bolada o'z-o'zidan shakllanmaydi, u tarbiya jarayonida kamol topadi. Burchni tarbiyalash jarayonida o'z-o'ziga talabchanlik rivojlanadi. Natijada har bir kishida o'z ishiga, bilimiga, kuch-quvvatiga ishonch qaror topadi. Inson o'z burchini to'la anglab yetsagina axloqiy yetuk shaxs hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Oriyati baland, nomusli inson o'z sha'ni, g'urur va qadr-qimmatini himoya qiladi. Bu tushuncha zamirida mardlik, lafz, vafo, latofat, hayo, sha'n, iffat, andisha kabi axloqiy me'yorlar mujassamlashgan. Farzandlarimizga or-nomus tushunchalarini singdirish orqali nafsni tiyish, yomonlikni tark etish, behayolardan o'zini olib qochish va ularga qarshi kurashish, uyulish, nomus, sha'nini saqlash, oqilalik va e'tiqodlilik, sharm-hayo, qat'iylik, mehr muruvvatlilik, insof, diyonat kabilarni shakllantiramiz.

Natijada esa bunday o'quvchi turli yot g'oya va informatsion tahdidlar ta'siriga o'zini berib qo'maydi va atrofidagilarni ham yomon yo'l va illatlardan qaytarishga o'zida kuch topa oladi.

Ta'kidlash lozimki, yuqorida tilga olingan milliy va umuminsoniy qadriyatlarini o'quvchi yoshlar ongiga ularning yoshligida boshlab uzluksiz shakllantirib borishimiz zarur. Va bunda muvaffaqiyatga erishishning eng samarali yo'li oila-maktab-mahalla hamkorligi, birgalikda ishlash olib borishi hisoblanadi. Milliy qadriyatlar o'quvchi yoshlar ongiga chuqur singib borsa, o'mnasha, har qanday informatsion tahdidlar ta'siridan yiroq bo'ladi.

Jamiyatning, ayrim shaxslarning ma'naviy madaniyati darajasi uning aqliy kamoloti bilan belgilanadi. Aqliy madaniyat jamiyat va tabiat qonun-qoidalari, hodisalar, bu hodisalarning bir-birlari bilan bog'liqligi asosida, shuningdek insoniyat hayoti, turmush tarzi, jamiyat taraqqiyoti haqidagi ilmiy bilimlarni, ilmiy-nazariy ma'lumotlarni o'zlashtirish yaxlit idrok etish, takrorlash, tassavvur va tafakkur qilish kabi ruhiy holatlar jarayonida shakllanadi.

Ilmiy bilimlar asosida kishilarning kundalik turmushida namoyon bo'ladigan va bo'lishi qat'iy ma'naviy fazilatlarining mohiyati chuqur anglab yetiladi va ularga ongli ravishda amal qilinadi. Chuqur bilim, malaka, ko'nikma ma'naviy madaniyatning barcha qirralari uchun g'oyaviy asos hisoblanadi. Yoshlarning faol bilish faoliyati ma'naviy ong va faoliyatning shakllanishida asos bo'lib xizmat qiladi. Ilmiy-nazariy bilim asosida yoshlarda yuksak axloqiy fazilatlar, nafosat, dunyoqarash, e'tiqod, mehnatga ijobiy munosabat, din va bid'atni biri-biridan farqlash, tabiatga muhabbat, burch va huquqiy anglash kabilar shakllanib boradi.

Har bir jamiyat avvalo o'zi yaratgan, qabul qilgan qonun va huquqiy normalarga asoslanadi. Bu qonun va huquqiy normalarning mavjudligi har bir huquqiy davlatning turmush tarziga kiradi.

Lekin, jamiyatda kishilarning turmushi, munosabatlari, urf-odatlar, rasm rusumlarining hammasini qonun sifatida rasmiylashtirib bo'lmaydi. Ularning ko'pchilik qismi umumiy axloq tushunchasi bilan qamrab olinadi. Demak, axloq kishilar hatti-harakatlari, xulq-atvor normalariga qo'yilgan umumiy talablarning yozma ravishda qonunlashtirilgan majmuasidir.

Axloq inson hayotining, jamiyat faoliyatini batomom qamrab oladi va u har qadamda kishilarning yashashidan maqsadi nima, baxt nima, huquq, haqiqat, adolat va adolatsizlik, nohaqlik, vazifa va burch nima degan yuzlab savollarga javob berishga harakat qiladi. Axloqqa zamin bo'lib xizmat qiladigan asosiy vositalardan biri umuminsoniy va milliy qadriyatlarini bilish va ularning boyishiga xizmat qilishdan iboratdir.

Har bir ijtimoiy-iqtisodiy tuzum o'z axloq normalarini joriy etadi, bu normalarni shaxs ongi va xulqida shakllantirishga intiladi. Jamiyatdagi axloqiy jarayon shu jamiyatda shaxsning har tomonlama rivojlanganligining asosiy ko'rsatgichi bo'lib, u ayni vaqtda, madaniy taraqqiyot o'Ichovini ham bildiradi. Axloqiy madaniyat jamiyatning madaniy ehtiyojlari asosida rivojlanadi va shakllanib boradi. Har bir tarixiy davrning o'ziga xos axloq normalari bo'lib, bir davr uchun zarur bo'lgan axloq normalari ikkinchi bir davrning ma'naviy talabini qondirishga to'liq xizmat qila olmaydi. Jamiyat taraqqiyotining har bir tarixiy bosqichida ijtimoiy-siyosiy, ijobiy-salbiy, progressiv-reaksiyon, ob'ektiv-sub'ektiv, ichki-tashqi, kerakli va keraksiz axloq belgilari mavjud bo'lib, ular jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy rivojlanishiga u yoki bu darajada ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, jamiyatning moddiy va ma'naviy taraqqiyoti ham o'quvchi axloqining rivojlanishi va shakllanishiga bevosita ta'sir etadi. Zamonaviy huquqiy davlat uchun kurashar ekanmiz, uning axloq qoidalari aniqlash eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bu narsa, birinchi navbatda kelajak egalari

bo'lgan yoshlarning ma'naviy madaniyatini shakllantirish masalalariga tegishlidir.

Tahlil va natijalar. Axloqiy madaniyat axloqiy bilimlar, malaka va ko'nikmalar, axloqiy ishonch, axloqiy ong va faoliyat normalari, axloq qoidalari yordamida yoshlarning xulq-atvori, hatti-harakatlari o'zaro muloqatini boshqara bilish tizimidir. Axloqiy madaniyat yoshlarning butun faoliyati davomida shakllanib va takomillashib boradi. Axloqiy ong bir tomondan atrofdagi axloq madaniyati ko'rinishlarini tanqidiy qabul qilib olib sekin asta ana shu qabul qilib olingan tarkibiy qismlardan axloqiy madaniyat tuzimi va tizimini yaratga boshlaydi. Ikkinchi tomondan, bu kuzatuv va qiyoslash natijasida qabul qilib olingan ayrim, bo'lak-bo'lak axloqqa tegishli tomonlar o'z axloqiy madaniyati uchun oddiy qurilish materiali bo'lib xizmat qilish bilan cheklanmaydi. Balki yoshlarni borliqqa axloqiy qoidalar, normalar nuqta nazaridan boqishga majbur etadi. Qiyoslash natijasida yasalgan xulosa atrof borliqni axloqiy mezonlar nuqta nazaridan baholashda yangi qadam hisoblanib, bu yangi xulosa oldingi xulosalardan nima bilandir aniqroq va to'laroq bo'ladi. Axloqiy madaniyat hech qachon yolg'iz o'zi yoshlar ongi va faoliyatida shakllantirilmaydi balki ma'naviy madaniyatning boshqa qirralari bilan birgalikda, munosabatlarda o'zligini yaxlit ravishda namoyon qiladi.

Shu bilan birga farzand tarbiyasida, milliy qadriyatlarining ham o'rni bo'lib, milliy qadriyatlar xalqning kundalik hayoti va turmush tarzida o'ziga xos mezon vazifasini o'taydi. Ushbu qadriyatlar vositasida turli hodisa va holatlarga, yangi paydo bo'layotgan faoliyat turlari va rasm rusumlarga baho beriladi. Yosh avlodning hayotiy mo'ljallari, «zamon qahramoni» haqidagi tasavvurlari ham ma'naviy qadriyatlardan kelib chiqib shakllanadi.

Milliy ma'naviy qadriyatlar ijobiy axloqiy sifatlarni takomillashtirish, davlat va millat rivojiga toqanoq bo'ladigan salbiy illatlarni bartaraf etish omilidir. Ma'naviyat, qadriyatlar va milliy g'oya jamiyat hayotining juda murakkab va serqirra, o'zaro uzviy aloqadorlikda bo'lgan sohalaridir.

Ma'naviyat, milliy qadriyatlar va istikdol g'oyalari alohida olingan har bir shaxs hayotida ham, jamiyatdagi turli guruh va qatlamlar faoliyatida ham, umuman insoniyat taraqqiyotida ham katta ahamiyatga ega. Millat va davlat taraqqiyotining ma'lum davrlarida ma'naviyat va milliy g'oya eng dolzarb, hal qiluvchi omil bo'lib maydonga chiqadi. Xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishning ilmiy nazariy, fundamental konsepsiyasi ishlab chiqildi. Milliy o'zlikni anglash aynan ma'naviy qadriyatlarini o'zlashtirish, o'z xalqining tarixi, madaniy merosini o'rganish, bugungi holati va ertanga istiqbolini aniq tasavvur etishdan boshlanadi. Har bir insonning mehnati, faoliyati, hayotiy maqsadlari ma'lum bir qadriyatlarga erishish, moddiy va ma'naviy boyliklarga ega bo'lishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Milliy ma'naviy meros, qadriyatlarining tarkibi, ko'rinishlari Milliy ma'naviy meros va qadriyatlar tushunchasi keng qamrovli tushuncha bo'lib, uning tarkibi quyidagilardan iborat: tarixiy meros va tarixiy xotira:

- madaniy yodgorliklar, qadimiy qo'lyozmalar;
- ilm-fan yutuqlari va falsafiy tafakkur durdonalari;
- san'at va milliy adabiyot;
- axloqiy fazilatlar;
- diniy qadriyatlar
- urf odat va an'ana va marosimlar
- ma'rifat, ta'lim tarbiya va hokozolar.

Milliylik xalqning ruhiyati va ma'naviyati, ayniqsa, san'at va adabiyot rivojida yorqin ifodalanadi. Ezgulik va poklikni, insoniylik va haqqoniylikni kuylagan buyuk asarlar, qaysi janrda yoki qaysi tilda yaratilganidan qat'iy nazar, jahonga taniladi. pirovardida yana shu millatning xalqaro nufuzini yuksaltiradi. Milliy ma'naviy qadriyatlar tizimida axloqiy sifat, diniy qadriyatlar munosib o'rin egallaydi va

milliy o'zlikni anglashning muhim sharti, omili sifatida namoyon bo'ladi. Axloqiy va diniy qadriyatlar aksari hollarda o'zaro bog'liq bo'lib, jamiyatning ma'naviy yuksalishida, yosh avlod tarbiyasida birdek muhim ahamiyatga ega.

Har bir xalq, millat yaratgan ma'naviy qadriyatlar, uning dunyoga qarashi va hayotga munosabati, o'ziga xos betakror xususiyatlari, ayniqsa, urf-odat va marosimlarda ta'laqonli namoyon bo'ladi. Marosimchilik bir qator ijtimoiy funksiyalarni bajaradi, milliy o'zlikni saqlashda, yoshlarni tarbiyalashda, muayyan g'oyalarni ruhiyatga singdirishda katta ahamiyat kasb etadi. Tarbiya va ta'limning milliy xususiyatlari ham ma'naviy qadriyatlar tizimida o'z o'miga ega. Xalqning kelajagi yoshlarga bog'liq ekanligi qanchalik haqiqat bo'lsa, bularni milliy ruhni tarbiyalash zarurati ham umum e'tirof etilgandir. Milliy tarbiya xalqning o'z-o'zini saqlash va istiqbolini ta'minlash omilidir. Barkamol avlod tarbiyasida milliy qadriyatlarimizning o'mi juda katta. O'zbek xalqining yoshlari milliy g'oya, qadriyatlar bilan yo'g'irilgan tarbiyani olishi kerak. Yoshlarmiz bugungi kunda har tomonlama barkamol avlod bo'lib yetishib kelmoqda. Zamonaviy taraqqiyot bizning yoshlarmiz dunyoqarashiga xam kuchli ta'sir ko'rsatmoqda albatta. Ana shunday sharoitda xam biz kattalar yoshlarning barkamol bo'lib shakllanishiga katta e'tibor qaratib, ularning milliy qadriyatlarimizni e'zozlashlariga o'rgatib bormog'imiz asosiy vazifalarimizdan biridir.

Bugungi kun yoshlari milliy urf-odatlarimizning shakllarini, aniq mazmunlarini chuqur anlagan bo'lishlari lozim. Ana shundagina kelajak avlod o'zbek millatining qadriyatlarini, ma'naviyatini, madaniyatini saqlab qoladigan, vatanni himoya qiladigan insonlar bo'lib yetishadilar.

Aхлоqiy madaniyatning ko'rinishlari, uning qirralari va namoyon bo'lish shakllari mazmunan xilma-xil, insonparvarlik, xalollik, tashabbuskorlik, faollik, ijodkorlik, haqiqatguylik, ma'suliyatlilik saxiylik, kamtarlik, poklik va shu kabi qator muhim tushunchalar axloqiy madaniyat tushunchalaridir. Bu xislatlar faoliyat jarayonida aqliy, siyosiy

nafosat, badiiy va boshqa madaniyat qirralari bilan hamkorlikda yoshlar ongi va xulqiga ta'sir etadi. Masalaning murakkab va o'ziga xos tomoni shundan iboratki, bu ijobiy hislatlarning har biri yoshlar ongi va faoliyatida o'zicha, yorqinroq, kengroq, kamtarona va yuzakiroq namoyon bo'lishi mumkin. Bu jihatdan hamma yoshlarga bir xilda ma'lumot beriladi. Lekin, bu xislatlar har bir yoshda o'ziga xos ravishda shakllanadi va namoyon bo'ladi. Shuning uchun ta'lim-tarbiya jarayonida yoshlarning o'ziga xos shaxsiy va psixologik xususiyatlarini hisobga olish, ma'naviy manbalarning ta'sir doirasiga e'tibor berish zarur.

Shunday qilib, axloqiy belgilarning har biri yoshlarda turlicha shakllanganligi axloqiy tarbiyaning har xilligi, ruhiy jismoniy xususiyatlarning har bir yoshda o'ziga xosligi bir biridan farq qiladigan axloqiy, ma'naviy shakllanganlik darajasini belgilaydi. Shu bois, har bir yoshning axloqiy xulq-atvori hatti-harakati, do'stlari, jamoasi, oila va jamoatchilik o'rtasida qay darajadali o'z faoliyatini milliy, umuminsoniy axloq normalariga mos ravishda tashkil etishi ijtimoiy, guruh, shaxsiy, axloqiy madaniy muloqati, axloqiy ta'sir doirasi bilan o'lchanadi. Yoshlar faoliyatining bu qirralari esa u o'zlashtirgan bilimlarning amaliyotga tadqiq eta bilishida namoyon bo'ladi.

Xulosa. Ta'lim tarbiya jarayonida yana ko'zda tutilishi lozim bo'lgan masalalardan biri axloqiy jarayonni boshqarish muammosidir. Jamiyatning turli sohalar siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy jihatdan boshqarilishi bilan bir qatorda, ijtimoiy aspektida ham boshqariladi, nazorat etiladi. Insonparvarlik ruhida munosabatlarni, ijtimoiy turmush tarzini shakllan-tirishning muhim omili axloqiy jarayonni boshqarishdan iboratdir. Axloq insonlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish uchun da'vat etilgan. U katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, yoshlarning o'zaro munosabatlari, o'zaro ta'sirlari orqali ularning axloqiy rivojlanishi, boyishi, qobiliyatlarining nomoyon bo'lishi, amaliy faoliyatlarini kuchaytirishga olib keladi.

ADABIYOTLAR

1. Ismailova Zuhra, Ruzimurot Choriev, and Aynisa Musurmanova Mahfuza Arip- janova. "Methods of training of teachers of university on advanced training courses." *Journal of Critical Reviews* 7.5 (2020) 413-416.
2. Narbaeva, T.K., Musurmanova, A. "Priority areas of spiritual, moral and physical education of youth in the family". *Annals of the Romanian Society for Ceff Biology* 25.1 (2021): 6485-6496
3. N.M.Egamberdiyeva "Ijtimoiy pedagogika" Toshkent 2009
4. V.M.Ochilova "Axloq falsafasi" Toshkent "IJOD PRINT" 2019
5. Karabaevna Z., Xamroevich R., Musurmanova A. Improving the competence of future vocational education teachers based on modular-rating education // *International Journal of Engineering and Advanced Technology*. - 2019. T. 9. No. 1.-C.
6. V.M.Ochilova "Axloq falsafasi" Toshkent "IJOD-PRINT" 2019
7. Nishanova Z.T., Alimova G.K., Turg'unboyeva A.G., Arslanboyeva M.X. "Bolalar psixologiyasi va psixodinamikasi" Toshkent 2017